





## FORS-TOJIK TILI LEKSIKOGRAFIYASINING TARIXIY SHAKLLANISHI

VAXIDOVA GULNOZA AMONOVNA

SamDU tojik filologiyasi va xorijiy sharq tillari kafedrası izlanuvchisi

### ARTICLE INFO

Received: 13<sup>th</sup> February 2024

Accepted: 13<sup>th</sup> February 2024

Online: 14<sup>th</sup> February 2024

### KALIT SO'ZLAR

lug'at, kalima, tarixiy an'analar, lug'atlarning tuzulishi, qadimiy lug'atlar, tibbiy leksika, psixologiya

### ANNOTATSIYA

Fors-tojik leksikografiyasi dastlabki davrlarda, asosan, O'rta Osiyo, Ozarbayjon, Eron (Xuroson) havzalarida shakllangan va shu davrlarda nashr etilgan bo'lsa, keyinchalik bu an'ana (XV-XIX asrlar) Hinduston o'lkalarida yanada rivojlandi. Buning esa muayyan tarixiy bosqichlari va ob'ektiv va sub'ektiv omillari mavjud. Maqolada fors-tojik lug'atnavisligining tarixiy shakllanish bosqichlari va ba'zi lug'atlarning kelib chiqishi haqida ma'lumot berilgan.

Tojik-fors lug'atshunosligi tojik tilshunosligining juda muhim tarmog'laridan bo'lib, o'zining qadimiy tarixi va an'alariga ega bo'lib, bu an'ana uzoq yillar davomida tadrijiy bosqichma-bosqich rivojlanib kelgan. Bunday tadqiqotning asosiy maqsadi tojik-fors madaniyatlarining to'liq katalogini ishlab chiqish, bu farhanglarda qayd etilgan yozma va kompyuterlashtirilgan lug'at va kompozitsiyalarining umumiy to'plamini tuzish, madaniy yozuv usullarini ilmiy jihatdan ko'rib chiqishdan iborat. Aytish joizki, bu lug'atlar, asosan ikki tilli bo'lib avesto-o'rta fors tillari hamda oromiy (pahlaviy, parfiyoniy) tillariga mansub bo'lganligi va ularning ba'zilari bizning davrimizga qadar mukammal va yoki to'liq bo'lmagan shaklda etib kelgan. Ulardan biri "Oyim-evak lug'ati" avesto va pahlaviy tillariga mansub lug'at bo'lib, unda birlamchi tilga mansub so'zlar ikkinchi tilga o'girilgan. Lug'at muqaddimasi va uning tuzilishi birinchi so'zning talqini va izohidan kelib chiqqan. Ushbu lug'at pahlaviy tilga tarjima qilingan 1000 ga yaqin avesto tiliga oid so'zlarini qamrab oladi. Lug'atda 2250 ta so'zni o'z ichiga olgan izohli (tafsiriy) modda mavjud bo'lib, unda 833 ta oromiy tiliga oid so'z va 24 ta "pozand" lug'atiga mansub so'zliklar ham qo'llangan.[3; 4; 7]

Qadimiy lug'atlarimizdan biri "Farhangi pahlavik" ("Pahlaviy lug'ati") deb nomlanib, 31 bobdan iborat. Unda Xudo, osmon, suv, dengiz, daryo, taom, sharob, meva, sabzavot, o't-o'lan, don, uy hayvonlari, hayvonlarning suti, go'shti, qushlar yovvoyi hayvonlar tana a'zolari, podshohlar va amaldorlarning unvonlari, odamlarning turli ijtimoiy guruhlari, boylik, qamoqxon va zindonlar, pul va boshqa ashyolar nomini ifodalovchi so'zlar mavjud bo'lib, bu so'zlar asosan fe'l, olmosh, son, sifat, yordamchi so'zlar kabi turkum nutq birliklarini ifodalashgan va bu so'zlar, asosan oromiy tilidagi

matnlar va ularning tuzilishiga taalluqli bo'lib, pahlaviy tilga talqin va tarjima qilingan. [6,9]

Ya'ni lug'at tuzish va lug'atnavislik an'analari qadimiy tarixga ega bo'lib, o'sha davrlardan boshlab rivojlana boshladi. Keyingi davrlarda, masalan, IX-X asrlarda bir qancha lug'atlar yozilgan bo'lsa-da, bizning davrimizgacha ularning ko'plab qismi etib kelmagan. Jumladan, manbalarda IX-X asrlar oxirlarida Abuhafs So'g'diy (Samarqandiy) qalamiga mansub "Farhangi Abo'hafsi Sug'diy" yo "Risoi Abo'hafsi Sug'diy" izohli lug'ati keltirilgan. Ammo, bu lug'at etib kelmagan, lekin ko'p manbalarda bu lug'atning tilga olinganligidan shuni payqash mumkinki, bu lug'at o'z davrida mukammal va nufuzli lug'atlardan biri bo'lgan. Abo'hafs Sug'diyning lug'atidagi ayrim noma'lum so'z moddalarini sharhlashda va qadimiy lug'aviy birliklarni topishda Said Nafisiyning xizmati katta.

Keyingi yillarga qadar noma'lum lug'atlar qatorida sanalgan yana bir lug'at mavjud bo'lib, bu Hakim Qatron Abdumansur al-Jabily Ozariy Tabreziyning "Qatron lug'ati" (taxminan 1046-1064 yillar oralig'ida yozilgan)dir. Bu lug'atning nisbatan to'liq tavsifi Muhammad Hindushoh Naxjuvoniyning 1328-yilda Tabrezda yozilgan "Sihah-ul-furs" muqaddimasida keltirilgan. Lug'atda keltirilishicha "Lug'ati furs" yaratishiga birinchilardan bo'lib harakat qilgan shaxs Hakim Qatroni Umraviy edi va u furs lug'ati tuzish bilan shug'ullanib, bu lug'atni kitobat holiga keltirgan, lekin mazkur tilga mansub bo'lgan va eng zarur hisoblangan lug'atlarni tilga olmagan, undan keyin esa buyuk donishmand olim Asadiy Tusiy bu asarni ustida ishlab mukammal va go'zal bir asarni ilm ahliga taqdim etdi va Hakim Qatron to'plagan lug'at moddalariga ko'plab lug'atlar qo'shdi va shuning uchun uning majmuasidagi lug'atlar soni hech narsada Qatron lug'ati bilan qiyoslanmaydi". [1,56]

Fors-tojik leksikografiyasining paydo bo'lishi va rivojlanishi eng avvalo IX-X asrlarda fors-tojik tili va adabiyotining rivojlanishi va uning tadrijiy ravishda murakkablashib borishi, badiiy adabiyotda majoz tariqining takomillashuvi natijasida va ijodkorlar dunyoqarashining tobora rivojlanishi bilan bog'liq va bu asosiy omillardan biridir. Qadimiy lug'atlarimizda (X-XV asrlar) izohli so'zlar soni 1000 dan 5000 gacha so'z birliklari lug'ati va alohida maqolalarini o'z ichiga oladi. Har bir qadimiy lug'at talqin qilinadigan so'zlarning tanlanishi va tuzilish usullari jihatidan keyingi lug'atlardan butunlay farq qiladi. Bu davr lug'atlari talqin yoki tafsiriy lug'at, murodifiy - sinonimik lug'at va qomusiy -entsiklopedik lug'at vazifalarini bajargan.

Leksikografik tadqiqotlarda so'zlarni izohlash tamoyillari turlicha bo'ladi. Ma'lumotlar har xil masalalarni o'rganish jarayonida taqdim etiladi. Masalan, eron olimlari Sayyid Nafisiy, Sodiq Kiyo, Shahriyor Naqaviylar keltirgan ma'lumotlari, asosan, lug'atshunoslik tarixi, tafsiriy lug'atlarning ahamiyati va ularning leksik qiymati bilan bog'liq jihatlarni qamrab oladi.[2,11] Fors-tojik

lug'atnavislik an'anasi, asosan O'rta Osiyo, Eron va Ozarbayjon (Xuroson)da XIV-asrgacha rivojlangan. Bu asrlarda quyidagi izohli va tafsiriy lug'atlari yaratilgan va ular bizning davrimizgacha etib keldi:

1. Asadi Tusiyning "Furs lug'ati"
2. Muhammad ibn Hindushoh Naxjuvoniyning "Sihah-ul-furs"
3. "Majmu'at-ul-furs"

XIII asrdan XIX asrgacha fors-tojik lug'atnavislik an'anasi va leksikografiyasi taraqqiyoti markazlaridan biri Hinduston hududi (havzasi) hisoblanadi. Fors-tojik tili Mahmud G'aznaviy (999-1030) tomonidan Hindustonni bosib olganidan keyin ham amalda bo'lgan. Fors-tojik tili Hindustonda rasmiy adabiy-ma'muriy til hisoblanib, davlat siyosati darajasiga ega bo'lgan va mazkur tilning amalda qo'llanilishi rasmiy adabiy, ilmiy til sifatiga keldi va shuningdek saroyda adabiy markazlar tashkil etildi, bu fors-tojik she'riyati va adabiyotining rivojlanishida qulay zamin yaratdi.

Hindustonda fors-tojik lug'atnavislik tarixi uch asosiy davrga bo'linadi:

1. XIII-XV-asrlar - Hindustonda ilk fors-tojik lug'atlarining vujudga kelishi.
2. XVI-XVII asrlarda - leksikografiyaning rivojlanishi va takomillashuvi davri
3. XVIII-XIX asrlar - an'anaviy lug'atnavislikning rivojlanishi mukammallashuvi. [6, 570]

Fors-tojik lug'atnavisligining ilk tarixiy bosqichi XIII-XV-asrlarda Hindustonda yaratilgan quyidagi lug'atlarni sanab o'tishimiz mumkin: "Qavvos lug'ati", "Dastur-ul-afozil", "Qadarxon donishnomasi", "Adot-ul-fuzalo", "Farhangi Zufongo'yo va jahonpo'yo", "Bahr-ul-fazoil", "Ummon-ul-maoniy", "Miftoh-ul-fuzalo", "Sharafnomai Munyariy yo farhangi Ibrohimiy", "Mujma'-ul-ajam" va boshqalarni sanashimiz mumkin.

XVI-XIX asrlarda fors-tojik lug'atshunosligi va leksikografiyasi o'tgan asrlarga nisbatan yuksak darajada rivojlanish bosqichiga ko'tarilib, bu davr lug'atnavislik tarixida eng samarali davrlardan biri hisoblanadi. Bu davrda leksikografik tamoyillar nuqtai nazaridan ishlab chiqilgan va adabiy tilning leksik va semantik qatlamlarini nisbatan to'liq qamrab olgan yirik lug'atlar paydo bo'lgan. Ya'ni nisbatan qisqa vaqt ichida bir qancha nufuzli va ishonchli lug'atlarning yaratilishiga guvoh bo'lishimiz mumkin: As-Sarhindiyning "Mador-ul-Afozil", Abdurahim ibn Ahmadiy Suri Bihoriyning "Kashf-ul-lug'ot'i", "Farhangi jahongiriy", "Burhoni qote" kabi lug'atlar aynan shu davrda - XVI asr oxirlari va XVIII asr boshlarida yaratildi.[2,57]

Fors-tojik leksikografiyasi tarixida tilshunoslikning o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lgan va alohida mavqe' kasb etgan ko'plab lug'atlarni ko'rishimiz mumkin. XII-XIII asrlardan bizgacha biron bir lug'at saqlanib qolganligi va etib kelganligi borasida ma'lumotlar mavjud emas, lekin XIV-XV asrlar davomida, ayniqsa XVI-XVII asrlardan boshlab ko'plab lug'atlar fors-

tojik leksikografiyasining jadal rivojlanishidan dalolat beradi. Eronlik tadqiqotchilar Said Nafisiy, Muhammad Muin, Shahriyori Naqaviy, evropalik olimlar X.Blochman, K.Zaleman, S.Baevskiy, A.Kapranov, tojik tilshunoslari tadqiqotchilari Rahim Hoshim, A.Sanginovlar fors-tojik lug'atshunoslik ilmiga oid asarlarini tadqiq etishda ulkan hissalarini qo'shdilar. Bu sohada T.Zehniy. X.Raufov, A.Nurov, A.Vohidov, X.Ahadov, A.Otaxonova, S.Nazarzoda, o'zbek olimlaridan S.Karimov, M.Sulton, Q.Muhiddinov, N.Husanov va boshqalarning ham hissasi juda buyukdir. Ular qadimiy lug'atlar sonini aniqlashda, ushbu bebaho merosning eng sara namunalarining tanqidiy matnini yaratishda, bugungi kun tafsiriy va izohli lug'atlarni tahrirlash va yangilashda beqiyos hissa qo'shdilar. Bu borada olib borilgan izlanishlarning muhim natijalaridan biri shundaki, eski lug'atlar ro'yxati tadrijiy ravishda kengayib bormoqda.

XVI asrda Shayx Muhammad Xizriy ibn Shayx Lodi Dehlaviyning "Muayid-ul-fuzalo", Shayx Abdurahim ibn Ahmad Surboriyning "Kashf-ul-lug'ot", Sherxon Suriyning "Farhangi Sherxoniy", Yamanda mashhur Abdullatif ibn Said Kamoliddinning "Halli-lug'ot-ush-shuaro", Abdulkarim Karimiy ibn Qozi Rajai Hamepuriyning "Anis-ush-shuaro", Mulla Ilohdod Fayzi ibn Alisher Sirhindiyning "Mador-ul-afozil"i, XVII asrda Mir Jamoliddin Husayn Injuning "Farhangi Jahongiriy", Ali Yusuf Shervoniyning "Durri Dari", Ne'matulloh Husayniyning "Majma'-ul lug'oti Xoniy", Muhammadhusayn Burhoniddin Dakaniyning "Burhoni qote", Mulla Abdurashid Husniy Tataviyning "Rashidiy lug'ati", Husayn ibn Ahmadning "Farhangi Husayniy", G'ulomulloh Bihikoniy Xonsuiyning "Ashhar-ul-lug'ot"i va XVIII asrda bir qancha lug'atlar ham yaratilgan bo'lib, ular orasida Roy Tik Chand Bahorning "Bahori Ajam" va Sirojiddin Alixon Orzui Akbarobodiyning "Siroj-ul-lug'ot" asarlari alohida shuhrat qozongan.

Bu o'lkada xususan XVI-XVII asrlarda leksikografiya ilmi nihoyatda rivojlandi. Bu davrda yaratilgan lug'atlar fors tilida so'zlashuvchi xalqlar uchun muhim tarixiy va ilmiy ahamiyatga ega. Bu lug'atlarning har birida juda ko'p sonli so'zlar va iboralar to'plangan va so'z moddalari har tomonlama izohlangan, tafsirlangan va tushuntirilgan. Masalan, Muhammad ibn Hindushoh Naxjuvoniyning "Sihah-ul-furs" lug'atida 2300 lug'at, Badriddin Ibrohimning "Zufongo'yo va zufonpo'yo" lug'atida 5170ta, "Farhangi Jahongiriy" lug'atida 7000 ga yaqin lug'at maqolalari va "Bahori Ajam"da 20 mingdan ortiq so'z va iboralar mavjud. Muhammad Husayniy Inju umrining 30 yilini "Farhangi Jahongiriy"lug'atini yozishga sarflagani va shundan so'ng umrining oxirigacha (yana qariyb 20 yil) uni takomillashtirish ustida mehnat qilgani bejiz emas. Roy Tikchandi Bahor "Bahori Ajam" asarini yozishga 20 yildan ortiq vaqt sarflagan. Qisqa vaqt ichida Ahmad Suri Bihorning "Kashf-ul-lug'ot val istilohot"i (XVI asrning 2-yarmi), Fayziy ibn Asadulloh Sirhindiyning (1593) "Mador-ul-afozil" kabi turkum lug'atlari paydo bo'ldi. Burhoniddin Muhammad Husayn Tabreziyning (1652) "Burhoni qote", Abdurrashid

Tataviyning (1654) "Lug'ati Rashidiy" kabi asarlarini ham shu qatorda qayd etish mumkin.

Qadimgi fors-tojik lug'atlarini tilning leksik birliklari va lug'at tarkiblariga ko'ra ikki guruhga bo'lish mumkin. Tarixiy xususiyatga ega bo'lgan lug'atlar, ya'ni ularda asosan tushunish qiyin bo'lgan so'zlar, arxaizmlar, O'rta Osiyoning qadimiy toponimlari, dori-darmon vositalari va tarixiy qahramonlarning nomlari sharhlangan va izohlangan to'plangan va tushunchalar berilgan. Asadi To'siyning "Lug'ati furs", "Sahih-ul furs", "Meyori Jamoliy", "Farhangi jahongiriy", "Qadarxon lug'ati" va boshqa bir qancha asarlar bu lug'at guruhlariga misol bo'la oladi. Me'yoriy lug'at xarakteriga ega bo'lgan lug'atlar. Bunday lug'atlarda badiiy adabiyotda qo'llaniladigan nisbatan keng tarqalgan so'z va iboralar izohlanadi. "Bahori Ajam", "Siroj-ul-lug'ot", "Haft qulzum", "G'iyos-ul-lug'ot" va shunga o'xshashlarni shu turkum lug'atlarga kiritish mumkin. Sho'rolar hokimiyati yillarida va keyinchalik Tojikiston mustaqillikka erishgandan keyin eroniy xalqlarining leksikografiyasi tarixini va lug'aviy merosini o'rganish va tadqiq qilish ishlari jadal sur'atlarda rivojlandi. Xususan, bu sohada tojik, o'zbek, fors, ozarbayjon va rus olimlarining xizmatlari yaqqol ko'zga tashlanadi.

Til leksikasini qamrab olish nuqtai nazaridan bu davr lug'atlari kelib chiqishi asl fors-tojik va eroniy tillar guruhiga kiruvchi matruk tillar leksikasini qamrab olgan. Ularda odam a'zolari, uy-ro'zg'or buyumlari va asbob-uskunalari, maishiy turmushga oid istilohlar, qishloq xo'jaligi, samoviy jismlar, tabiat hodisalari, insonning his-tuyg'ulari, qarindosh-urug'chilik nomlari, harakatlarini ifodalovchi so'zlar qisqa jumlar bilan va ko'pincha sinonimlar bilan izohlanadi. Ushbu davrda yaratilgan lug'atlarning yana bir muhim xususiyati shundaki, u yoki bu so'zning ma'nosini tasdiqlash, aniqlash va belgilash uchun ko'pincha she'riy matnlar keltiriladi.

1526-1857-yillarda Hindustonda hukmronlik qilgan hind temuriylari davrida fors-tojik tilida fan va lug'at shu darajada rivojlandiki, u bugungi kunda Hinduston va butun dunyo fors tilida so'zlashuvchi xalq va elatlarning faxriga aylangan: Lug'atlar yaratishga bo'lgan e'tibor va ehtiyoj va uning rivojlanishi, deb yozadi V.A.Kapranov, bu zaminda shu davrda "fors" tilidagi badiiy adabiyotning, xususan, she'riyat va nasrning jadal va izchil tarzda rivojlanishi bosh omil bo'ldi. Shu munosabat bilan fors tilini, qadimgi tojik lug'atlarini o'rganish, shuningdek, tojik tilida so'zlashuvchi hindiyzabon mualliflari qo'llagan so'zlarni tafsirlash va izohlash masalasi zaruriyati kelib chiqdi".[5,8]

Mumtoz adabiyot tarixini o'rganishda tazkiralarning o'rni qanchalik muhim bo'lsa, O'rta Osiyo va Eron xalqlari tili va tarixining shakllanish bosqichlari taraqqiyotini belgilash, tushunish va angalab etishda qadimiy lug'atlar ham juda muhim ahamiyat kasb etadi. Hinduston va Pokistonda leksikografiyaning uchinchi davri XIX-asr boshlarini o'z ichiga qamrab olgan

bosqichi leksikografiya tarixida yangi tarixiy va zamonaviy davr deb ataladi. Ammo bugungi kunda ham leksikografiya sohasiga alohida etibor berilib, lug'atnavislik sohasining shakllanish va takomillashuviga zamonaviy texnologiyalarning o'рни juda kattadirki, buni keyingi ishlarimizda alohida shug'ullanamiz.

#### Adabiyot:

1. Баевский С.И. Ранняя персидская лексикография XI-XVвв. Москва "Наука" 1989 (Минбаъд: Баевский, Ранняя.стр.)
2. Воҳидов А. Фарҳангшиносии тоҷикӣ-форсӣ дар асрҳои X-XIX.- Самарқанд, 2018.- 144с.
3. Воҳидов А. Аз таърихи фарҳангшиносии форсу тоҷик. – Самарқанд. Нашри ДДС. 2019.
4. Давлатбек Хоҷа. Ташаккул ва таҳаввули илми забоншиносии форсу тоҷик дар асрҳои миёна. – Душанбе: ДМДТ, 1998. -149 с.
5. Капранов В.А. Дар бораи баъзе хусусиятҳои луғатҳои қадимаи тоҷикӣ (форсӣ). Шарҳи сурх, 1997. №7, с.8.
6. Маликушшуаро Баҳор. Сабкшиносӣ ё таърихи татаввурӣ насри форсӣ. - Душанбе: Сабкшиносӣ, 2012.- 570 с.
7. Оранский, И.М. Введение в иранскую филологию.- М., 1960.-460 с.
8. Саймиддинов Д. Фарҳангномаи форсии миёна.- Душанбе: Дониш, 1994.- 88с.
9. HD Farxodzod, SJ Majitova. Description of bukhara as the patriotic poem of Tajik-Persian poetry and the issues of remaining poetry. Journal of Critical Reviews, 2020.
10. Majitova S.J. Aminova D.Sh. The linguistic significance of the father concept. Journal of Advanced Scientific Research (ISSN: 0976-9595)
11. Nurulloeva Z.H. Detailed description of lexical items in "Strong Argument. DOI : [10.5958/2249-7137.2021.01068.5](https://doi.org/10.5958/2249-7137.2021.01068.5)